

THE ROLE OF EXERCISES IN THE FORMATION OF SPEECH STRUCTURAL CONSTRUCTIONS AMONG STUDENTS

Kiyamova Mahbuba Sultanovna

Associate Professor, Department of Foreign Languages

Turon University

ORCID ID: 0009-0003-0092-6444

kiyamovamaxbuba@gmail.com

Tel.: (90) 442-98-31

Abstract

The article examines the role and significance of exercises in the process of forming speech structural constructions among students. Exercises aimed at speech development contribute to the development of students' ability to express their thoughts logically and consistently. In this regard, the correct use of grammatical and logical units is of particular importance. The article scientifically substantiates that exercises are an effective means of forming independent speech activity. Within the scope of the article, the types of exercises, their methodological features, and the mechanisms for their implementation in the educational process are discussed in detail. When exercises are organized systematically and step by step, students' speech competence increases significantly, and the quality of foreign language education becomes stable.

Keywords: Speech structural constructions, speech competence, system of exercises, speech formation, communicative approach, speech activity, oral speech, written speech, interactive exercises, pedagogical mechanisms, educational effectiveness, communicative competence.

Introduction

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tilida talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim pedagogik talablardan biri sanaladi. Chet tilida nutqiy tarkibiy tuzilmalarni egallash — fikrni erkin bayon etish, ifoda etmoqchi bo'lgan fikrni grammatik qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri va mantiqiy bayon qilish ko'nikmasining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim tizimida mashq va topshiriqlar orqali nutqni rivojlantirish an'anaviy tarzda davom etib kelayotgan bo'lsa-da, bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida loyihalashtirilgan mashqlar talabaniq mustaqil fikrlashi va ijodiy nutqini shakllantirishga asosiy o'rinni egallaydi. Shu jihatdan mashqlarning turlari, ularning samaradorligi va tilni mukammal egallashdagi amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarbdir. Nutq madaniyatini yuksaltirish, grammatik va mantiqiy bog'liqlikni mustahkamlash, fikrni ravon va aniq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishda mashqlarning roli beqiyosdir. Darslarni tashkil etish jarayonida mashqlarning turlarini to'g'ri tanlash va o'quv jarayoniga metodik xususiyatlarini inobatga olgan holda tatbiq etish katta ahamiyatga ega. Chet tili o'quv jarayonida muntazam mashq qilish talabalarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda



muhim omil sanaladi. Darsning mazmunidan kelib chiqib mashqlar tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilganda talabalarning nutqiy kompetensiyasi ma'lum darajada oshishiga zamin yaratiladi. Mashqlarning ta'lim jarayonida o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlar ekanmiz demak, umumiy o'rta umumiy ta'lim maktabi yoki oliy ta'lim uchun yaratilayotgan darsliklarda berilayotgan mashqlar ta'lim olayotgan yoshlarning nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi kerak. Grammatik va mantiqiy bog'liqlikni mustahkamlash, fikrni ravon va aniq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishda mashqlarning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Chet tili o'qitish jarayonida mavzuga bog'langan mashqlar turlarini tanlashda juda katta e'tibor qaratish lozim. Masalan, og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan sifatli, og'zaki nutqqa undovchi mashqlarni yaratish yoki tanlash o'quv jarayonini iloji boricha samarali va muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Chet tilida nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirishda tilning fonetikasi, grammatikasi va leksikasini rivojlantirishga oid mashqlarning berilishi tilni mukammal o'rganishga asos bo'ladi. Chet tili darsliklarida nutqni shakllantirishga oid mashqlar ta'limning asosiy vositasi sifatida e'tirof etiladi. Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutq rivoji mashqlar orqali faollashadi. Demak, amaliy mashqlar, mashqlarning turlari, umuman mashqlar tildan faol foydalanish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Chet tilini o'rganish uchun chop etilayotgan darsliklarda ham asosan tilni rivojlantirishga qaratilgan fonetik, leksik va grammatik mashqlar ko'p uchraydi. Black/Butzkammning 1977 yilda boshlang'ich bosqich uchun mo'ljallangan "tilga yo'naltirilgan mashqlar" darsligida ham tilga yo'naltirilgan va keyingi bosqichga o'tish juda muhim bo'lgan mashqlar o'rin olgan, chunki faqat tilga yo'naltirilgan mashqlardan keyingina nutqiy harakatlarni mashq qilish, ya'ni (kommunikativ, mazmunga asoslangan) og'zaki nutq malakasi rivojlana boshlaydi. Littlewood 1975-yildayoq rolli o'yinlar nima sababdan sun'iy muhitda — ya'ni dars xonasida — kommunikativ kompetensiyani egallash uchun juda mos kelishini tushuntirib bergan. O'quvchilar kundalik hayotdagi vaziyatlarni hal qilish uchun zarur bo'lgan so'z birikmalarini o'rganishni xohlaydilar, biroq dars jarayonida bu til vositalarini mashq qilish mumkin bo'lgan real vaziyatlar mavjud emas. Shuning uchun rolli o'yinlar va vaziyatlarni taqlid qilish orqali o'quvchilar ushbu nutqiy vositalarni amaliy ravishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. [1;122-123-b.].

Rolli o'yinlar o'quvchilarning faolligini oshirishga, ularni mustaqil fikrlashga va muloqot jarayonida ustunlikka ega bo'lishga undaydi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar nafaqat til birliklarini to'g'ri qo'llashni, balki suhbatdoshning fikriga mos javob qaytara olishni, nutqiy vaziyatga mos ravishda strategiya tanlash va kommunikativ to'siqlarni yengib o'tishni ham o'rganib oladilar. Buning natijasida auditoriyada yoki sinf xonasida yaratilgan sun'iy kommunikativ muhit o'quvchilarning real hayotda tilni samarali qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

G.V.Rogova, I.N.Vereshchaginalarning ta'kidlashlaricha, ikkinchi tilni o'rganishda uch xil faollikni o'zaro farqlash kerak: intellektual, emotsional va nutqiy faollik [2; 66-b.]. O'zaro so'zlashuv jarayonidagi faollik ko'proq nutqiy sanalib, u shu jarayonning qanday tashkil etilishiga bog'liq. Dars jarayonida o'zaro so'zlashuvni tashkil etishda o'rganuvchilarning nutqiy faolligini oshirishda uchun sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.



O'rganuvchilarga erkin fikr bildirishiga undovchi topshiriqlar, juftlik va guruhli ishlash shakllari, rolli o'yinlar hamda muammoli vaziyatlar uchun sharoitlar yaratib berish nutqiy faollikni oshirishning asosiy omili sanaladi. Darslarni tashkil etish jarayonida intellektual faollik mazmunni tushunish va tahlil qilish orqali yuzaga keladi, emotsional faollik esa o'quvchilarning qiziqishi va ichki motivatsiyasi orqali namoyon bo'ladi va ularning o'zaro uyg'unligi ikkinchi tilni samarali egallashga kata yordam beradi.

R.X.Abubakirovaning ta'kidlashicha, dialogik nutq o'stirish suhbatdoshlarning biri gapirishi, ikkinchisi nutqni tinglab tushunishi bilan bog'liq nutqiy faoliyat ko'rsatgani uchun psixologik jihatdan muayyan qiyinchiliklar tug'diradi [3; 3-b.]. Darhaqiqat dialogik nutq jarayonida o'rganuvchi bir vaqtning o'zida bir nechta murakkab psixik jarayonlarni amalga oshiradi. Birinchi navbatda suhbatdoshining nutqini idrok etish kerak, uning mazmunini tushunib olishi kerak, javobni rejalashtirish, shu bilan birga til birliklarini tezkor tarzda tanlab qo'llashi ham kerak. Demak, til o'rganayotgan o'quvchilarga e'tibor, xotira va fikrlash juda yuqori darajada bo'lishi kerak. Nutqiy modellardan foydalanib dialogik nutqni bosqichma-bosqich o'stirish, shu bilan birga psixologik jihatdan qulay o'quv muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega. I.V.Lisikova ta'kidlaganidek, dialogik nutq nutqiy faoliyatning murakkabroq ko'rinishlaridan biri sifatida quyidagi tavsifga ega: – dialogning borishi bexosdan, oldindan aytib bo'lmaydigan tarzda yuz berishi; – nutqning sub'yektiv-baho beruvchi bo'yog'i orqali namoyon bo'ladigan emotsionallik va ekspressivlik; – ikki bo'lakli birliklarning (savol – javob, savol – aks savol, xabar); – suhbatni ilib ketish replikasi, taklif – rozilik yoki rozi bo'lmaslik, ajablanish va shu kabilar) mavjudligi [4; 27-b.].

M.A.Xegay “К вопросу обучения русскому языку по речевым моделям в узбекской школе” mavzusidagi metodik qo'llanmasida: “Atrofdagi sharoit haqidagi suhbat, rasm asosidagi suhbat va boshqalar dialogik nutq vaziyatligining ko'rgazmali bo'lish shakli hisoblanadi. Nutqiy vaziyat o'rganilayotgan adabiy asarlardan sun'iy o'ynalgan vaziyatlar, o'quvchilar hayotidagi dalillar imitatsiyasi asosida yaratilishi mumkin” [5; 8-b.]. M.A. Xegayning ushbu fikriga asosan dialogik nutqni shakllantirishda nutqiy vaziyatning hal qiluvchi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Atrof-muhit haqida suhbat tashkil etilayotganda o'quvchi uchun ko'rgazmali va aniq vaziyat bu tabiatning o'zi hisoblanib, nutqni real muloqotga yaqinlashtiradi. Rasm asosida olib boriladigan muloqot kabi shakllar ham til o'rganish jarayonida mashqlarning o'rnini to'g'ri ifodalash kerakligini ko'rsatadi. Biror bir tilni o'rganishdagi nutqiy mashqlar sun'iy yoki imitatsion vaziyatlarda bajarilganda samarali bo'ladi. Til o'rganuvchilarga hayotiy vaziyatlar, adabiy asarlardan olingan sahnalar yoki rasm asosida qurilgan suhbatlar asosida mashqlarni tashkil etish o'zining ijobiy samarasini beradi va mashq jarayonida til birliklari sanalmish so'z, gap, nutqiy qoliplarni maqsadli va vaziyatga mos holda qo'llashga o'rgatadi. Til o'rganishdagi mashqlar nafaqat til materialini mustahkamlash, balki nutqiy vaziyatni yaratish va uni “jonlantirish” vazifasini ham bajaradi. Demak, dialogik nutqqa qaratilgan mashqlar o'rganuvchini fikr bildirishga, suhbatdoshni tushunishga va javob qaytarishga undaydi. Buning natijada mashqlar tilni o'rgatish vositasi bo'lishi bilan birga, muloqot madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omilga aylanadi. Yuqoridagi fikrlar shundan guvohlik beradiki, nutqiy vaziyatlarni til o'rganishdagi mashqlar bilan uzviy bog'liq holda tashkil etish o'rganilayotgan tilda dialogik nutqning ko'rgazmalilik va kommunikativlik xususiyatlari ro'yobga chiqarishga asosiy o'rinni egallaydi. F.H.Aminovanning “O'quvchilarni



muloqot matn yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari" mavzusidagi nomzodlik ishida o'quvchilarni turli xil matnlar tuzish, shu matnlar vositasida muloqotga, muloqot odobiga o'rgatish yo'llari yoritilgan. [6; 157-b.]. Darhaqiqat nutqiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishning asosiy markazida mashqlar turadi. Chet tili, xususan nemis tili o'qituvchisi sifatida shuni aytishim kerakki, tilni mukammal egallashda mashqlar markaziy o'rinda turadi. Mashqlar til o'rganishda markaziy masala sifatida talqin qilinar ekan, mashqlarning sifatiga, turiga juda kata ahamiyat berish kerak. Dialogik nutqni o'stirish ko'lamini O.G.Birdinaning dialog turlariga doir tasnifi yanada kengaytiradi. U dialogning quyidagi turlariga e'tiborni qaratadi: ma'naviy dialog, refleksiv (nutqiy vaziyatga mos) dialog, o'z o'zini joriy etuvchi dialog, ish yuzasidan so'zlashuv, intervyu, bahs-munozara, polemika [7; 23–24-b.]. Shu bilan birga dialogning biror narsani muhokama qilish, yangi bilim olish dialogi kabi turlari ham bor.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ilm –fan va texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim sohasini ham yuksak darajaga ko'tardi. Talabalarning chet tillarni mukammal o'rganishlari va ularda kommunikativ ko'nikmalarni yuqori saviyada rivojlantirish bugungi kunning asosiy masalalaridan biridir. Bizga ma'lumki, til o'rganishda **faol ko'nikmalarga** (yozish, gapirish) va **passiv ko'nikmalarga** (o'qish, eshitish) kabilar kiradi. Bu asosiy til ko'nikmalarini rivojlantirish tilni puxta o'zlashtirishning garovi hisoblanadi. Nazariy va amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga olgan va murakkab jarayon hisoblangan til o'rganish bevosita mashqlar bilan bog'liq. Mashg'ulotlar davomida til ko'nikmalarini rivojlantirishda mashqlarning o'rni beqiyosdir. Mashqlarning saviyasi qanchalik darajada yuqori bo'lsa, tilni mukammal egallashga yaxshi zamin yaratiladi. Chet tillarni o'qitishda qo'llaniladigan mashqlar qo'yidagilarga bo'linadi: 1.Gapirishni o'rgatadigan mashqlar. 2.Tinglab tushunishni o'rgatadigan mashqlar. 3.O'qishni o'rgatadigan mashqlar. 4.Yozuvni o'rgatadigan mashqlar. Gapirish ko'nikmasini rivojlantirish mashqlarga dialogik mashqlar, monologik mashqlar, rolli o'yinlar, munozara va bahs-munozara mashqlari, axborot almashishga asoslangan mashqlar va ijodiy gapirish mashqlari kiradi. Dialogik mashqlariga savol–javob mashqlari, tayyor dialoglarni o'qish va davom ettirish, dialogni to'ldirish (yetishmayotgan gaplarni qo'shish), dialogni erkin shaklda tuzish kabilar kiradi. Dialogik mashqlar muloqotga kirishish, suhbatni davom ettirish ko'nikmasini rivojlantirishga katta yordam beradi. Monologik mashqlarga rasm, surat yoki voqea asosida gapirish, o'zini tanishtirish, biror mavzu haqida fikr bildirish va hikoya yoki matnni qayta so'zlab berish kabilar kiradi. Monologik mashqlar fikrni izchil va mustaqil ifodalashga o'rgatadi. Rolli o'yinlarga kundalik hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish, ijtimoiy rollarni bajarish kabilar kiradi. Bu kabi mashqlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Munozara va bahsga mo'ljallangan mashqlarga oddiy mavzularda fikr almashish mashqlari, tasdiq yoki inkor etishga mo'ljallangan mashqlar va guruhviy muhokamalarga boy mashqlar kiradi. Bu kabi mashqlar nutqning ravonligi va fikrni himoya qilish qobiliyatini oshiradi. Axborot almashishga asoslangan mashqlarga ma'lumotlarni bir-biriga navbatma-navbat aytish va juftlikda yoki guruhda ishlash kiradi. Bu kabi mashqlar muloqotga ehtiyoj tug'diradi va real gapirishni ta'minlaydi. Ijodiy gapirish mashqlariga esa hikoya tuzish, vaziyatga mos gap o'ylab topish va fantastik yoki taxminiy savollarga javob berish kabilar kiradi. Bu esa nutqiy mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantiradi. 2.Tinglab tushunishni o'rgatadigan mashqlar. Tinglab



tushunish mashqlari va tinglab qayta ishlash mashqlari kiradi. (ALM) 1940-1950 yillarda rivojlanib, 1950-1960-yillarda mashhur bo'lgan, asosan og'zaki nutqni o'rgatish, takrorlash (drills) va behaviorizm nazariyasiga asoslangan til o'qitish usulidir, ya'ni nutqni "quloq bilan o'rganish"ga urg'u beradi. 3.O'qishni o'rgatadigan mashqlariga harf–tovushni o'rgatish mashqlari; bo'g'inlab o'qish mashqlari; so'z o'qish mashqlari; gap o'qish mashqlari;matn o'qish mashqlari; o'qib tushunishni rivojlantiruvchi mashqlar va tezlik va ravonlikni rivojlantiruvchi mashqlar kiradi. Harf–tovushni o'rgatish mashqlariga harflarni tanish va aytish, harfni tovush bilan bog'lash va harf–bo'g'in–so'z ketma-ketligini o'qish kabilar kiradi. Bu kabi mashqlar chet tilini egallashning ilk bosqichi hisoblanadi. Bo'g'inlab o'qish mashqlariga ochiq bo'g'inlarda o'qiladigan mashqlar, yopiq bo'g'inlar o'qiladigan mashqlar va murakkab bo'g'inlarni o'qishga mo'ljallangan mashqlar kiradi. So'z o'qish mashqlariga tanilgan so'zlarni o'qish mashqlari, yangi va murakkab so'zlarni o'qish mashqlari va rasmlar asosida so'z o'qish mashqlari kiradi. Gap o'qish mashqlariga qisqa va sodda gaplarni o'qish, dialoglarni o'qish va intonatsiyaga e'tibor berib o'qish mashqlari kiradi. Matn o'qish mashqlariga matnni ovoz chiqarib o'qish, ichida (jim) o'qish va rollarga bo'lib o'qish mashqlari kiradi. O'qib tushunishni rivojlantiruvchi mashqlarga savol-javob mashqlari, matnga sarlavha qo'yish va asosiy fikrni topish mashqlari kiradi. Tezlik va ravonlikni rivojlantiruvchi mashqlarga qayta o'qish mashqlari, vaqt bilan o'qish va matnni ifodali o'qish mashqlari kiradi. 4.Yozuvni o'rgatadigan mashqlariga grafomotor (qo'l harakati) mashqlari; harf yozishga tayyorlov mashqlari; harf yozish mashqlari; bo'g'in va so'z yozish mashqlari; gap yozish mashqlari; diktant mashqlari; ijodiy yozma mashqlar va orfografik va imlo mashqlari kiradi. Grafomotor (qo'l harakati) mashqlari to'g'ri o'tirish va ruchkani ushlab, chiziq, egri va to'liq shakllarni chizish va nuqtalarni tutashtirish mashqlari kiradi. Bu kabi yozuvni o'rgatadigan mashqlar chet tilini egallashning ilk bosqichi hisoblanadi. Harf yozishga tayyorlov mashqlariga harf elementlarini yozish, harflarni andoza asosida ko'chirish va bir xil shaklli harflarni taqqoslab yozish mashqlari kiradi. Bo'g'in va so'z yozish mashqlariga bo'g'inlardan so'z tuzish va yozish mashqlari, rasm asosida so'z yozish va yetishmayotgan harfni to'ldirish mashqlari kiradi. Gap yozish mashqlariga tayyor gapni ko'chirib yozish mashqlari, so'zlardan gap tuzib yozish va punktuatsiyaga rioya qilib yozish mashqlari kiradi. Diktant mashqlariga harf diktanti, so'z diktanti va gap va matn diktanti mashqlari kiradi. Ijodiy yozma mashqlarga esa rasm asosida gap yoki matn yozish mashqlari, berilgan so'zlar yordamida matn tuzish va mustaqil kichik insho yozish mashqlari kiradi. Orfografik va imlo mashqlariga xatoni topish va tuzatish mashqlari, to'g'ri–noto'g'ri yozilgan so'zlarni ajratish va qoidaga mos yozish mashqlari kiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Til o'rganish jarayonining ko'p yillik tarixi va tajribasiga nazar tashlasak, dastlab til o'rganishda til aspektlari, ya'ni fonetik mashqlar, grammatik mashqlar va leksik mashqlarga e'tibor qaratilgan. So'nggi yillarda kommunikativ mashqlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xatto maktab darsliklarida ham kommunikativlikni oldinga surib, grammatik qoidalarni darslik so'nggida kichik hajmda berish asosiy qoidaga aylandi. Mening nazarimda bu holat ham ijobiy emas. Ko'p yillik tajribalarim asosida shuni ta'kidlashni lozim deb topdimki, til uch asosiy aspektdan iborat. Bu uchlikni bir-biridan hech qachon ajratib bo'lmaydi. Biri ikkinchisi bilan



chambarchas bog'liq. Til aspektlarini birgalikda tushuntirib, har biri asosida mashqlarni berib borsak, til o'rganishda ijobiy natijalariga erishamiz. Til o'rganish jarayoni albatta mashqlarda qo'llanadi va mustahkamlanadi. Mashqlar esa aspektlarga ko'ra taqsimlanadi. Shunga ko'ra mashqlar tizimiga qo'yiladigan talablar zamonaviy xarakterga ega bo'lishi, qiyinlik darajasi bo'yicha oddiydan murakkabga qarab shakllanib borishi kerak. Mashqlar bir birini to'ldirib borishi, o'zaro bog'liqligi va kommunikativ maqsadlar ham inobatga olinishi zarur.

Bizga ma'lumki, o'tgan asning 60-yillar boshlarida kommunikativ mashqlar termini paydo bo'ldi. Kommunikativ muloqotga undash harakati boshlandi. Shuni yodimizdan chiqarmaslik kerakki, til o'rgatish jarayonida tilda so'zlarni to'g'ri qo'llashga undovchi, grammatikasiga qattiq rioya qiluvchi, nutqni shakllantirishga undovchi eng mukammal mashqlar yordamida muloqotga mohirona tayyorlash zarur. Bu deganimiz fonetik, grammatik va leksik mashqlar majmuasidan iborat bo'lishi kerak. Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirishda mashqlarning roli va ahamiyati haqida fikrlar yuritilish jarayonida amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tillarni o'qitish, o'rgatish va chet tilini mukammal egallashda nutqiy mashqlar tizimli, bosqichma-bosqich va maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llanilganda talabalarning nutqiy faolligi yuksak darajada oshishi aniqlangan. Ko'p yillik tajribalar shuni e'tirof etadiki, mashqlar tilini tez va puxta egallashning garovi hisoblanadi. Mashqlar orqali talabalar nutqining mantiqiy jihatdan to'g'ri tashkil etish malakasi shakllanadi. Dialogik va monologik nutqqa yo'naltirilgan mashqlar talabalarning fikrini izchil bayon qilishida, grammatik to'g'ri jumlar tuzish va mazmunni aniqlik bilan ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishda katta yordam beradi. Ko'plab kuzatuvlar, suhbatlar va tajriba mashqlari orqali olingan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, til o'rganishda nutqiy mashqlar doimiy tashkil etilganda talabalar o'z fikrini mustaqil va erkin bayon qilishga intila boshlaydi. Mavzuga oid turli rasmlarni tasvirlash, rasmlar asosida hikoya tuzish, berilgan so'zlar asosida matn yaratish, savol-javob mashqlarini bajarish nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirishda samarali usul ekanligi tahlillar asosida isbotlangan. Mashqlarning mazmuni talabalarning yoshiga va bilim darajasiga mos bo'lishi kerak. Mashqlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bosqichma-bosqich berib borilayotgan mashqlar nafaqat nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantiribgina qolmay, balki muloqot madaniyati, tinglash va tushunish, suhbatdosh fikriga munosabat bildirish kabi ko'nikmalari ham shakllanishini ko'rsatdi. Talabalarning chet tillarni mukammal egallash jarayonida samarali natijalarga erishish uchun nutqiy tarkibiy tuzilmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimini joriy etish va to'liq amalga oshirish va uni amalda to'g'ri qo'llay olish kerak bo'ladi. Bu esa har bir mutaxassis o'qituvchidan katta ma'suliyatni talab etadi.

Mashg'ulotlar davomida chet tilidagi **og'zaki nutq mashqlari quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak: birinchidan o'z ona tili bilan taqqoslashga** undaydigan matnlarga asoslangan bo'lishi kerak; ikkinchidan mashqlar **murakkablik darajasining bosqichma-bosqich oshib borishi** tamoyiliga qat'iy amal qilgan bo'lishi kerak; uchinchidan **og'zaki nutq mashqlari** o'quvchilarni aksariyat hollarda **shaxsiy munosabat bildirishga turтки bera olish imkoniyatlariga ega** bo'lishi kerak; to'rtinchidan mashq ketma-ketliklari **og'zaki mashqlar bilan birga yetarli miqdorda yozma mashqlarni ham** o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Darsda yangi o'rganilgan matnga tayanadigan og'zaki nutq mashqlari juda foydalidir. Bunday matn o'quvchilarga mazmuniy yo'nalish, boshlang'ich fikrlar, hatto o'z



nutqlarida qayta ishlatishlari mumkin bo'lgan **til birliklarini** ham taqdim etadi. Chet tilida chop etilayotgan darsliklarda ham mavzuga bog'langan og'zaki nutqni rivojlantirishga doir mashqlarni **qiyinchilik darajasiga ko'ra tartiblab berishlari** muhim ahamiyatga ega – bu o'quvchilarning ortiqcha zo'riqishiga yo'l qo'ymaydi va ularni monologik matn yaratish jarayoniga asta-sekin olib kiradi. Chet tili darslarida o'quvchilar mashqlar davomida **og'zaki chiqishlarini yozma ravishda tayyorlab olish imkoniga ega** bo'lishlari kerak, bu esa nutqiy tortinishlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. **Mavzu bo'yicha avvalgi bilimlarini faollashtiradigan ko'plab turli-tuman mashqlar** yangi mavzuga kirishni va unga oid lug'at boyligini kiritishni osonlashtiradi. Bunda talabalarning nutqiy faolligi yanada ortadi. Chet tili ta'limining asosiy vazifasi ham chet tilida erkin muloqotni shakllantirishdan iborat.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Mashqlarni mavzular asosida, grammatik qoidalarni mustahkamlash asosida oddiydan murakkabga qarab berib borilsa, tilni mukammal egallash jarayoni tezlashadi va ijobiy natija beradi. Bunday yondashuv natijasida talabalar nutqida mantiqiy izchillik, bog'lanishlilik va stilistik yaxlitlik yuzaga keladi. Bu kabi holatlar mashqlarning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirishda mashqlar muhim pedagogik vosita bo'lib, ular talabalarning nutqiy faoliyatini takomillashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda chet tilini mukammal o'rganishlarida nutqiy tarkibiy tuzilmalarni rivojlantirish asosiy o'rinni egallaydi. Bu jarayonda mashqlar muhim va hal qiluvchi vosita hisoblanadi. To'g'ri va ketma ketlikda, tartibli tarzda berilgan mashqlar talabalarni chet tilida fikrni mantiqiy, izchil va maqsadga muvofiq tarzda ifodalashlariga katta yordam beradi. Mashqlar orqali talabalar til materialining asosiy tarkibiy qismlari — leksika, grammatika va fonetika atalmish aspektlarini mukammal egallab, til birliklardan ongli ravishda foydalanish ko'nikmasini hosil qiladi. Tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilgan mashqlar talabalarning og'zaki va yozma nutqni tez ilgab olishlariga va tilni mustahkam egallashlariga zamin yaratiladi. Natijada talabada muloqot jarayonida o'z fikrini erkin va ishonch bilan bayon etish qobiliyati rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jürgen Quetz Gerhard von der Handt (Hrsg.) Neue Sprachen lehren und lernen Fremdsprachen unterricht in der Weiterbildung Neue Sprachen lehren und lernen: Fremdsprachenunterricht in der Weiterbildung / Hrsg.: Deutsches Institut für Erwachsenenbildung, 2002, –122-123 b.
- 2.Рогова Г.В., Верещагина И.Н. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. – Москва: – Издательство “Просвещение”, 1988. – 66 с.
3. Абубакирова Р.Х. Пути совершенствования русской диалогической речи студентов национальных групп вузов: Автореф. дис... на соис. уч. степ. канд. пед. наук. – Москва, 1979. – 16 с.
4. Лисикова И.В. Интенсивное обучение диалогической речи в школе с углубленным изучением английского языка // Иностранные языки в школе. Москва: 2013, № 5. – С. 27–32.



5. Хегай М.А. К вопросу обучения русскому языку по речевым моделям в узбекской школе. – Ташкент: 1967, – 132 с.
6. Aminova F.H. O‘quvchilarni muloqot matn yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nom. diss. – Toshkent: 2007, – 157 b.
7. Бырдина О.Г. Диалоговая технология формирования ценностного самоотношения школьника на уроках немецкого языка //Иностранные языки в школе. – Москва: 2010, № 9. – С. 22–24.

